



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi

Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish28

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

G.A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

Termiz iqtisodiyoti va servis universiteti o'qituvchisi
Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna
E-mail: dinora.ibodullayeva@icloud.com
ORCID: 0009-0009-8342-1268

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI TEATR ATAMALARINING CHOQ'ISHTIRMA TAHLILI ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamaları qiyosiy-lingvistik uslubda o'rganildi. Tadqiqot davomida teatr terminologiyasining kelib chiqishi, semantik xususiyatlari va madaniy kontekstdagi o'zni tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, teatr terminologiyasi til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aks ettiradi hamda har bir tilning tarixiy va madaniy rivojlanishiga bog'liq holda shakllangan. O'zbek tilidagi teatr terminologiyasi asosan rus, arab va fors tillaridan kirib kelgan bo'lsa, ingliz teatr terminologiyasi fransuz va italyan madaniy an'analaridan boyigan. Tadqiqot teatr tilshunosligi va madaniyatlararo muloqot sohalariga o'z hissasini qo'shadi

Tayanch so'zlar: teatr terminologiyasi, qiyosiy tahlil, o'zbek tili, ingliz tili, madaniyatlararo muloqot, lingvistik o'zlashmalar, sahna san'ati, tarjima nazariyasi

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТЕАТРАЛЬНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье театральная терминология узбекского и английского языков исследуется в сопоставительно-лингвистическом аспекте. В ходе исследования проанализированы происхождение театральных терминов, их семантические особенности и роль в культурном контексте. Результаты показывают, что театральная терминология отражает взаимосвязь между языком и культурой и формируется в зависимости от исторического и культурного развития каждого народа. Театральная терминология узбекского языка в основном заимствована из русского, арабского и персидского языков, тогда как английская театральная терминология обогатилась за счет французских и итальянских культурных традиций. Данное исследование вносит вклад в развитие театральной лингвистики и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: театральная терминология, сопоставительный анализ, узбекский язык, английский язык, межкультурная коммуникация, лингвистические заимствования, сценическое искусство, теория перевода.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THEATRE TERMINOLOGY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

ABSTRACT

This article examines theatrical terminology in Uzbek and English from a comparative linguistic perspective. The study analyzes the origin of theatrical terms, their semantic characteristics, and their role within a cultural context. The findings reveal that theatrical terminology reflects the interaction between language and culture and has developed according to the historical and cultural evolution of each nation. Uzbek theatrical terminology is mainly influenced by borrowings from Russian, Arabic, and Persian, whereas English theatrical terminology has been enriched by French and Italian cultural traditions. This research contributes to the fields of theatre linguistics and intercultural communication.

Keywords: theatre terminology, comparative analysis, Uzbek language, English language, intercultural communication, linguistic borrowings, performing arts, translation theory.

KIRISH

Teatr san'ati insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, uning terminologiyasi teatrning o'ziga xos estetik, ijtimoiy va madaniy

xususiyatlarini aks ettirib keladi. Teatr nafaqat sahnadagi san'at, balki jamiyatdagi madaniy qadriyatlar, tarixiy voqealar va estetik tafakkurning in'ikosi sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu san'at turining rivojlanishida, albatta,

teatrda oid atamalar muhim rol o'ynaydi. Teatr terminologiyasi spektakl yaratish, rollarni ijro etish, sahna texnikasi va dramaturgiya jarayonlarini tushunish va tasvirlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida teatr atamalarining qiyosiy tahlili tillararo va madaniyatlararo o'zaro ta'sirlarni o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Har bir til va madaniyat teatrda oid atamalarni o'z tarixiy va madaniy rivojlanishiga mos tarzda shakllantirgan. Masalan, ingliz tilidagi ko'plab teatr terminlari qadimgi yunon, lotin va fransuz tillaridan olingan bo'lsa, o'zbek tilidagi teatr atamalarida turkiy ildizlar, shuningdek, arab, fors va rus tillarining ta'siri seziladi. Bu holat tillar o'rtasidagi madaniy va tarixiy aloqalarni, shuningdek, madaniyatlarning teatr san'ati orqali bir-biriga ko'rsatgan ta'sirini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Bugungi kunda globallashuv va madaniy integratsiyajarayonlarinatinatijasidaturlixalqlarning teatr an'analari va terminologiyalari o'rtasidagi aloqalar yanada murakkablashmoqda. Shuning uchun teatr terminologiyasini zamonaviy ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, uning lingvistik va madaniy o'zgarishlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon teatr san'ati vositasida milliy va global identitet shakllanishini tahlil qilishda ham muhim rol o'ynaydi.

Mazkur tadqiqot o'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarini qiyosiy tahlil qilishga, ularning kelib chiqishi, semantik o'ziga xosligi, struktura va madaniy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari ikki til va madaniyat o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni aniqlash orqali teatr terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlariga yoritish berishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu tahlil tarjimashunoslik, tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida teatr terminologiyasining to'g'ri va samarali qo'llanishini ta'minlashga ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-lingvistik tahlil usuli qo'llanildi. Ma'lumotlar o'zbek-ingliz lug'atlari, teatrshunoslikka oid ilmiy adabiyotlar, teatr sahna asarlari matnlari hamda rasmiy teatr terminologiyasi ro'yxatlaridan yig'ildi. Atamalar semantik guruhlar (spektakl turlari, aktyorlik rollari, sahna harakatlari, texnik jihozlar) asosida tasniflandi va kelib chiqish manbai (asl ma'noli so'z, o'zlashgan so'z, tarjima yo'li bilan kirgan so'zlar) nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Bundan

tashqari, tadqiqotda sotsiolingvistik va tarixiy-lingvistik yondashuvlar ham qisman qo'llanildi. Sovet davri va mustaqillikdan keyingi davr teatr terminologiyasi o'rtasidagi farqlar alohida ko'rib chiqildi. Tadqiqot jarayonida sifat tahlili (qualitative analysis) metodologiyasi asosida terminlarning semantik kengayishi, ko'chma ma'no kasb etishi va funksional yuklamasi o'rganildi. Shu bilan birga, ayrim terminlarning sahna amaliyotidagi real qo'llanishi ham matnlar va sahna asarlari asosida tekshirildi.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan qiyosiy-lingvistik tahlillar asosida aniqlanishicha, o'zbek va ingliz tillaridagi teatr terminologiyalarining shakllanishida umumiyliklar bilan bir qatorda sezilarli farqlar ham mavjud. Tadqiqot jarayonida teatr terminlarining kelib chiqishi, semantik mazmuni, milliy-madaniy xususiyatlari hamda tarkibiy tuzilishi nuqtayi nazaridan qator muhim ilmiy natijalarga erishildi. Avvalo, terminlarning kelib chiqishi va o'zlashmalar tabiati jihatidan qaralganda, o'zbek teatr terminologiyasi asosan rus, arab va fors tillaridan o'zlashtirilgan atamalarga tayanadi. Masalan, rejissyor (rus. режиссёр), aktyor (rus. актёр), sahna (arab. **سحنة**), parda (fors. **پرده**) kabi terminlar bugungi kunda o'zbek tilida faol qo'llaniladi. Ingliz teatr terminologiyasi esa, aksincha, fransuz va italyan tillaridan o'zlashgan atamalar bilan boyitilgan bo'lib, mise-en-scène (fr.), genre (fr.), opera (it.), commedia dell'arte (it.) kabi terminlar bunga yaqqol misoldir.

Semantik tenglik va farqlar tahlili natijasida ma'lum bo'ldiki, ikkala tilda ayrim teatr terminlari bir xil ma'noli ifodalansa-da, ularning etimologik ildizlari turlicha. Masalan, o'zbek tilidagi aktyor va ingliz tilidagi actor so'zlari ma'no jihatidan mutanosib bo'lsa-da, biri rus tili orqali, ikkinchisi esa lotincha actor ("ijrochi") so'zidan kelib chiqqan. Xuddi shuningdek, sahna (arabcha ildizli) va stage (nemis ildizli) so'zlari ham ma'nodosh, biroq ular turli til oilalariga mansub. Bu holat ikki tildagi teatr terminologiyasi turli sivilizatsion manbalarga tayanishini va o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida shuningdek, teatr terminologiyasining muayyan qismi milliy-madaniy o'ziga xoslikni ifodalashi aniqlangan. O'zbek tilidagi dostonchi, maqomchi, qiziqchi, baxshi kabi sahna faoliyatiga oid terminlarning ingliz tilida to'liq ekvivalenti yo'q. Aksincha, ingliz teatr tilida understudy (zaxira aktyor),

improv (improvizatsion teatr), showcase, casting kabi terminlar keng qo'llaniladi, ammo ularning o'zbek tilidagi barqaror muqobillari hali shakllanmagan. Bu esa har bir xalqning teatr madaniyati va sahna an'alarining o'ziga xosligini tasdiqlaydi.

Terminlarning tarkibiy tuzilishi tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz teatr terminlari ko'pincha bir so'zli shaklda bo'ladi (drama, backstage, costume), o'zbek tilida esa sintaktik birikma ko'rinishida — sahna bezagi, aktyorlik mahorati, repetitsiya jarayoni kabi shakllarda ifodalanadi. Bunday farq ikki tildagi termin yaratish mexanizmlarining turlicha ekanligini va har bir tilda teatr san'ati tushunchalarini ifodalashning o'z uslubiy tizimi mavjudligini ko'rsatadi.

Muhokama. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, teatr terminologiyasi rivojida tarixiy va madaniy omillar hal qiluvchi rol o'ynagan. O'zbek tilida teatr atamaları asosan uch asosiy manbadan shakllangan: rus, arab va fors tillari. Bu jarayon, bir tomondan, Markaziy Osiyoning tarixiy taraqqiyoti- arab xalifaligi davri, fors madaniyati ta'siri va keyinchalik Rossiya imperiyasi hamda Sovet Ittifoqi davrlarida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Ayniqsa, Sovet davrida o'zbek teatr san'atining modernizatsiyalashuvi jarayonida rus tilidan teatr atamaları keng miqyosda o'zlashgan va o'zbek adabiy tiliga moslashtirilgan[7]. Ingliz teatr tiliga esa Renessans davri teatr tajribasi, fransuz va italyan sahna madaniyati kuchli ta'sir ko'rsatgan[8]. Tarjima jarayoni faqatgina so'z darajasida emas, balki teatr konseptlarini anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, madaniy maxsus atamalar tarjima qilinayotganda semantik boylik va madaniy kontekstni saqlash muhimdir[1].

Xulosa. O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining qiyosiy tahlili teatr terminologiyasining shakllanishida til, tarix, madaniyat va ijtimoiy muhitning bevosita ta'siri mavjud ekanini isbotladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, teatr terminologiyasi ikki xalqning milliy madaniyati, estetik qarashlari va sahna an'alarini bilan uzviy bog'liq. Har ikkala tilda teatr atamaları tizimi mavjud bo'lib, ular mazmun, shakl va qo'llanish jihatidan o'ziga xoslik kasb etadi. Birinchidan, terminlarning kelib chiqishi bo'yicha sezilarli farqlar kuzatildi. O'zbek teatr terminologiyasi tarixiy taraqqiyot davomida asosan rus, arab va fors tillaridan o'zlashgan bo'lsa, ingliz teatr

terminologiyasining shakllanishida fransuz va italyan tillarining ta'siri ustuvor bo'lgan. Bu teatr san'atining rivojlanishida turli madaniy maktablar ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, semantik o'xshashliklar va farqlar tadqiq etildi. Ikkala tilda ham sahna san'ati, aktyorlik, dramaturgiya va rejissyorlikka oid umumiy tushunchalar mavjud, biroq ularning mazmuniy ifodasida milliy tafakkur va san'at an'alariga xos farqlar qayd etildi.

Masalan, ingliz tilidagi understudy, playwright, screenplay kabi terminlarga o'zbek tilida mazmun jihatdan yaqin bo'lsa-da, mutlaq ekvivalent bo'lgan bir so'zli terminlar mavjud emas. Aksincha, o'zbek tiliga xos baxshi, dostonchi, maqomchi kabi birliklarning ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri muqobili yo'q. Uchinchidan, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi teatr terminlari ko'proq yig'iq, bir so'zli va tizimlashtirilgan tuzilmaga ega, o'zbek tilida esa ko'plab terminlar sintaktik birikma shaklida uchraydi: sahna bezagi, aktyorlik mahorati, musiqali drama va boshqalar. Bu ikki tilning termin yaratish usullari turlicha ekanidan dalolat beradi. To'rtinchidan, teatr terminologiyasidagi ayrim birliklar madaniy konnotatsion ma'no kasb etadi. Masalan, tragediya, komediya, drama kabi xalqaro tushunchalar umumiy bo'lsa-da, milliy teatr an'alarida ularning ifoda uslubi va qo'llanish doirasi farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bassnett, S. (2013). Translation Studies. Routledge.
2. Brockett, O. G., & Hildy, F. J. (2007). History of the Theatre. Pearson Education.
3. Carlson, M. Theatre Semiotics: Text and Staging in Modern Theatre. Indiana University Press. 2006
4. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press. 2003
5. Hayward, S. French National Cinema. Routledge. 1996
6. Kennedy, D. The Oxford Companion to Theatre and Performance. Oxford University Press. 2010
7. Mirzaahmedov, A. O'zbek sahna san'ati tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti. 1997
8. Qayumov, S. O'zbekcha-Inglizcha teatr atamalar lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti. 2005.
9. Safarov, B. Milliy teatr va dramaturgiya taraqqiyoti. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2009.
10. Solijonov, S. O'zbek adabiy tilining rivojlanish bosqichlari. Toshkent: Universitet nashriyoti. 2001.
11. Uspenskaya, V. E. Terminologiya teatra: Opyt sistemnogo analiza. Moskva: Nauka. 1983.